



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сурхондарё вилояти

190100, Termiz shahri, Taraqqiyot ko'chasi, 42-uy, Termiz shahri, AT "Tyron" bank Tel-Fax:
(376)-22-3-24-87, 22-3-06-42, 22-3-24-75 Mail: surxonekspertiza@mail.ru www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: NURALIYEV NURBEK BAXTIYOROVICH

Sana: 26-10-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 126917

Obyekt nomi «Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanining "Ekraz" maxallasidagi 24-sonli maktabni 264 o'rinli qo'shimcha bino qurish bilan rekonstruksiya qilish» ishchi loyihasi bo'yicha »

Buyurtmachi - Surxondaryo viloyati xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati"

DUK

Bosh loyihachi - "Atmosfera Eko Ekspertiza" MChJ

Litsenziya AL-000260-sonli, 2019-yil 10-oktabr O'zbekiston Respublikasi

Qurilish Vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Budget mablag'lari

Bosh pudratchi - Tanlov savdo natijalariga ko'ra aniqlanadi

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 117447

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-mart kuni Surxondaryo viloyatiga

tashrifi yakunlari bo'yicha berilgan 13-sonli topshiriqlar bayoni.

1.2. Arxitektura-rejalashtirish topshirigi 1722-1722201-73380-son 17.08.2023-yil.

1.3. Surxondaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xizmat boshqarmasi va xalq ta'limi boshqarmasi, maktab direksiyasi bilan kelishilgan va buyurtmachi tomonidan 2023-yilda tasdiqlangan loyixa topshirig'i.

1.4. Bino va inshotlarning, qurilish materiallari va konstruksiyalari texnik va konstruktiv xolati

to'g'risida Surxondaryo viloyati qurilish sohasida xududiy nazorat inspeksiyasining 2023-yil 15-sentabrda tasdiqlangan 291/TXD sonli texnik xulosasi.

1.5. Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan, 2023 yilda kapital ta'mirlash, rekonstruksiya va yangi qurilish ob'ektlari loyixa smeta hujjatlarini ishlab chiqishda qo'llash uchun o'rtacha mashina va mexanizmlar, texnologik jixozlar, qurilish materiallari o'rtacha narxlari to'g'risida ma'lumot.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

1.03.01-16 sonli ShNQ talablariga asosan ishlangan ishchi loyihasi quyidagi tarkibda:

2.1. Umumiy tushuntirish yozuvi-1 kitob.

2.2. Smeta hujjatlari-2 kitob.

2.3. Qurilishni tashkillashtirish loyihasi-3 kitob.

2.4. Qurilish maydoning muhandislik geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

2.5. 264 o'rinli yangi o'quv binosining AE, QK, TX- bo'limlari bo'yicha ishchi chizmalar-1 albom.

2.6. 264 o'rinli yangi o'quv binosining IV, YoS, EYo, TF, VK - bo'limlari bo'yicha ishchi chizmalar-2 albom.

2.7. GP, tashqi muxandislik tarmoqlar, yordamchi bino va inshootlar bo'yicha chizmalar-3 albom.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1 Qurilish maydonining xususiyatlari:

- qurilish maydoni IVA iqlim mintaqasiga tegishli,
- tashqi havo harorati- (-11°S),
- normativ shamol bosimi- 0.38 kPa,
- normativ qor qatlami vazni - 0.50 kPa,
- kurilish xududining zilzilabardoshligi – 7 bal,

2023-yilda «Surxon geologiya laboratoriyasi» MChJ tomonidan o'tkazilgan izlanishlar natijasiga ko'ra qurilish maydonning muhandislik geologik sharoitlari quyidagicha ifodalanadi:

- tuproqning seysmik xususiyati bo'yicha turi -III,
- qurilish maydonining xisoblar uchun seysmikligi – 8 bal,
- asosning tuproq qatlami –suglinok, jigarrang, qattiq konsistesiyali, yuqori g'ovakli, cho'kuvchan,
- tuproqning cho'kuvchanligi bo'yicha turi -II,
- qurilish joyidagi tuproqlar GOST 10178-85* muvofiq portlandsementidagi betonga nisbatan past agressiv,
- dala kidiruv davrida yer osti suvlari yer yuzasidan 8 metr chuqurlikda aniqlangan.

3.2. Manzili

Rekonstruksiya Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanining "Ekraz" maxallasi "Toshloq guzari" ko'chasidagi mavjud maktab xududida, Oltinsoy tumani qurilish bo'limining 2023-yilning 21-iyuldagi 1722201-122288-sonli ruxsatnomasiga asosan amalga oshiriladi.

3.3. Hudud bosh rejasi

Genplan ShNK 2.07.01-03* texnologik talablariga muvofiq, yong'in va sanitariya me'yorlariga mos holda ishlab chiqilgan.

Rekonstruksiya loyihasi quyidagilar ko'zda tutadi: 264 o'quv o'rinli bino, yonginga qarshi 50m³ xajimli xovuz, kanalizatsiya va ichimlik suv tarmog'larini tortish; MAF, MTU-100kv^t modul qozonini, qarshi qalqon o'rnatish; maktab hududini obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish.

3.4. Texnologicheskie resheniya

Maktab rekonstruksiyasi o'quv o'rinlarini sonini ko'paytirish, o'quvchilarning bilim olish va maktab ma'muriyatining sharoitini yaxshilash uchun maqsadida bajarilmoqda.

Loyixalanayotgan 264 o'quv o'rinli o'quv bloki qo'yidagi xonalardan iborat:

- 1-kavatda-3 ta 24 o'randan sinf, fizika, ximiya, kitoblarni saqlash, xamshira va o'qituvchilar xonalari, vestibul tambur bilan birga, koridor;

- 2-kavatda-6 ta 24 o'rindan sinf, 1 ta yarim gruppaga, direktor, ruxshunos, direktor o'rinbosari xonalari, koridor.

Bino kavatlar orasidagi aloqa 1 ta ichki temirbeton va tashqi metal konstruksiyali zinapoyalar orkali kuzda tutilgan.

Imkoniyati cheklanganlar uchun "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-11-moddalariga va 2001yil 30-apreldagi 25-son O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitekturasining buyrug'iga muvofiq binoga kiraverishda panjarali pandus kuzga tutilgan.

3.5. Asosiy konstruktiv yechimlar va parametrlar

Loyixalanayotgan 264 o'quv o'rinli o'quv binosi (MKM 01-04 talablari asosida individual ishlab chikilgan loyixa)* – ikki qavatli, to'rtburchak ko'rinishda, devorlari o'qlari bo'yicha o'lchamlari 30.6x15.6m, xona balandligi -3,0m, birinchi qavat pol yuzasidan tom tepasiga bino balandligi 9.46m, konstruktiv yechimlar-poydevori tasmasimon quyma betondan, devorlari pishgan g'ishtdan, yopma va ora yopmalari yig'ma temir beton plitalaridan, issiqlikni saqlash-bazalt plitalaridan, tomi yog'och konstruksiyali bo'lib, polimer qoplamali profnastil bilan qoplanadi.

Loyixalanayotgan binoning zilzilaga bardoshligi qattiq konstruksiya yaratilishi bilan ta'minlanadi. Binoning qattiqligi bo'ylama va ko'ndalang devorlar tizimi bilan hamda ora yopma va yopma plitalarining antiseysmik belbog'larga betonlab qotirilishi natijasida hosil bo'ladigan qattiq disk bilan ta'minlanadi. Devorlarning gorizontall choklari armaturlar bilan kuchaytiriladi.

Cho'kuvchanlikka qarshi tadbirlar 2.02.01-96 QMQ talablariga asosan inobatga olingan.

Beton va temir beton konstruksiyalari tuproqqa ko'miluvchi qismlarining yemirilishga qarshi himoyasi uchun poydevor tagiga V-3,5 betondan qatlam quyilib gorizontall yuzaga rulon material yopishtiriladi va poydevorning tik yuzasiga 2 qatlamli surtma gidroizolyatsiya qilininishi inobatga olingan.

Ob'ektdan favqulotda holat sharoitida foydalanish kafilligi (mazkur holatda seysmik ta'sirchanlik) bino va inshootlarning "Seysmik hududlarda qurilish" nomli 2.01.03-96sonli QMQ talablari asosida qo'shimcha kuchaytirilishlari bilan ta'minlanadi.

"Yong'inga qarshi tadbirlar" nomli 2.01.02-04 sonli ShNQ talablariga asosan quyidagi tadbirlar ko'zda tutilgan:

- barcha yog'och qurilmalariga yong'indan himoyalash vositalari bilan ishlov berish,
- yong'inga qarshi 50m3 xajimdagi xandaq qurish,
- yong'inga qarshi signalizatsiya tarmog'ini qurish,
- o't o'chiruvchi vositalarning binolarga yaqinlashish sharoitini yaratish,
- yong'inga qarshi qalqon o'rnatish.

3.6. Energiya samaradorlik

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan, shulardan asosiylari:

- vestibulda tambur ko'zda tutilgan;
- tashqi devorlarda 3 qavat oynali plastik deraza va eshik romlari loyixalangan;
- zichligi $\gamma=90\div110\text{kg/m}^3$, qalinligi 50mm bo'lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan(thermoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
- zichligi 800 kg/m³, qalinligi 250mm bo'lgan keramzit shag'alidan yopma termoizolyatsiyasi bajarilgan(thermoizolyatsiyaning uchinchi darajasi);
- FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalardan foydalanilgan,

- tomida 4 dona quyosh panellari ($4 \times 0,55 \text{ kVt} = 2.2 \text{ kVt}$) o'rnatilgan;
- yoritishda energiya tejamkor elektr chiroqlari ko'zda tutilgan.

3.7. davomiylik muddati

QTL taqvimiy jadvaliga ko'ra qayta tiklash davomiylik muddati 5 oyni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Issiqlik ta'minoti-MTU-100kvt rusumidagi modul isitish qozonidan, isitish moslamalari-aluminiy radiatorlar, yoqilg'ining turi-qattiq yoqilgi.

Elektr ta'minoti-loyihalanayotgan transformator podstansiyasidan KTPs-100.10.0.4 kva, elektr energiyasini o'lchash uchun ASKUE tizimini o'rnatiladi, tejamkorlik maqsadida energiya tejaydigan lampalardan foydalanish kuzda tutiladi.

Suv ta'minoti-maktab xududi yaqinidan o'tgan mavjud suv quvuridan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- loyixa-taklif Surxondaryo viloyati qurilish bosh boshqarmasi loyixa-smeta xujjatlarini kelishish bo'yicha arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organi bilan kelishilgan(2023-yil 26-sentabr 97421412-sonli xulosa);
- yangi o'quv binosining texnologik qismi buyurtmachi, viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertizadan o'tkazish jarayonida lokal ekspert xulosalar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va takliflar asosida loyixachi tomonidan ishchi loyixaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi:

- genplandagi ob'ektlar ro'yxati ishchi loyixasi ishlab chiqilganlar bilan muvofiqlashtirildi,
- yopmalar ustidagi issiqlikni saqlovchi keramzit shag'ali qatlamining kam olingan qalinligi, xisob bo'yicha ko'paytirildi,
- yog'och pol ostida ortiqcha qatlam loyixadan chiqarildi,
- tuproqning cho'kuvchanligiga qarshi choralar ko'chaytirildi,
- poydevorda diametri kam olingan armatura o'lchami ko'paytirildi,
- spetsifikatsiyada temirbeton yopmalar soni to'g'rilandi,
- asossiz loyixalangan profto'shama ostidagi termoizolyatsiya loyixadan chiqarildi,
- qisman kompozit armatura qo'llanishi inobatga olindi,
- obreshyotkalarini o'rnatish oralig'i 250mm ga qisqartirildi,
- otmostka eni o'zgartirildi,
- arxitektura va shaxarsozlik kengashi xulosasi taqdim etildi,
- nisbatan uzun peremichkalar armaturasi kuchaytirildi,
- pol eksplikatsiyasiga aniqlik kiritildi,
- mauerlatni parapet devoriga maxkamlash ko'rsatildi,

6.2. Resurslar ro'yxatidagi ishlarning turlari va xajmi, resurslari ro'yxatini aniqlashning xaqiqiyligini baxolash:

- asossiz inobatga olingan galereyaning qurilishi smetasi loyixadan chiqarildi,
- smetaga qolib ketgan poydevor qurilishining xajmi kiritildi,
- kam xisoblangan pardadevor terish xajmi ko'paytirildi,

- marmar plitkalarni to'shasha yuzasi to'g'rilandi,
- smetaga loyixaga muvofiq relin qoplamasi to'shach kiritildi,
- pol uchun silliqanmagan marmar plitalari ishlatilishi ko'rsatildi,
- keramzit shag'alini, profili to'shama to'shach, deraza va eshik romlarini o'rnatish, asosni shag'al bilan mustaxkamlash, tashqi beton zinapoya qurish, soyabon o'rnatish, bazalt bilan qoplash ishlarining element normasi to'g'rilandi,
- ayrim resurs ko'rsatkichlarining (mashinalar va mexanizmlarning ishlashi transport harajatlari, materiallar) narxiga aniqlik kiritildi

6.3.Rekonstruksiya ishlari qiymati hisobi.

Taqdim etilgan loyixani qurilish ishlari qiymati QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) bilan **3 022 321,283 ming so'mni** tashkil qilgan bo'lib, ekspertiza natijasiga ko'ra, taqdim etilgan qiymati-**10 982.616ming so'm** miqdorida kamaytirilib, **3 011 338.667ming so'm** tasdiqlash uchun tavsiya etildi, jumladan:

- QMI-2 560 662.132ming so'm,
- QQS-307 279.456ming so'm,
- buyurtmachining boshqa xarajatlari-143 397.079 ming so'm.

Kamayishga asosan ayrim ish turlari hajmlariga va qurilish materiallar narxlariga, xamda element resurs normalarga aniqlik kiritilganligi natijasida erishildi.

6.4.Loyiha smeta hujjatlari buyurtmachi tashkilotining loyiha bo'yicha taklif va tavsiyalarisiz ekspertiza ko'rigiga topshirildi.

6.5. Buyurtmachiga va bosh loyixachiga rekonstruksiya boshlanishidan oldin:

- ShNQ 1.03.01-16 talablariga asosan binoning energetik pasporti ishlab chiqilsin;
- buyurtmachining boshqa xarajatlari miqdorini 4.01.16-19 sonli ShNQ talablariga

asosan aniqlash buyurtmachi va bosh loyixachi zimmasiga yuklatiladi.

6.6.Buyurtmachiga, loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.7.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq:

- yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugaganidan so'ng nazorot

o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi;

- ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan xujjatlarining to'liqligi,

ma'lumotlarning ishonchiligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha

yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan "Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanining "Ekraz" maxallasidagi 24-sonli maktabni 264 o'rinli qo'shimcha bino qurish bilan rekonstruksiya qilish" ishchi loyixasi bo'yicha ishchi loyixasi bo'yicha ishchi loyixasi bo'yicha qiymatini kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya qilinadi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi 261-sonli qaroriga va ShNK04.01.16-09 asosan tavsiya qilinayotgan qiymati pudrat shartnomasi tuzish uchun asos bo'la olmaydi va pudradchini tanlash savdosining boshlang'ich qiymatini yakuniy aniqlash huquqi buyurtmachi

zimmatisiga yuklatiladi.

Bosh mutaxassis: Jo'rayev O'ktam Sadikovich

Ishtirokchi ekspertlar:

Gulboyev Jumanazar Mamatkarimovich

ORIPOV FAYZULLO SATTOROVICH

SHAMSIYEV SHOXRUX SHODMONOVICH

Katayev Abdulkarim Xidirovich

Ashurov Shuxrat Qaxramonovich

Шартнома Давлат ахмиятидаги а-й [Faylni ko'rish](#)